



2021- yilning yanvar-iyun oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatida jami 3506,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2855** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **262** taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurilish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **106,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **60,1 %**), fuqarolik obyektlarini qurilish **114,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **116,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **30,9 %**) o'sishidir.




Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	2020- yil 1- iyul holatiga	2021- yil 1- iyul holatiga	
Buxoro viloyati	2593	2855	110,1
Buxoro sh.	842	952	113,1
Kogon sh.	103	115	111,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	61	75	122,9
Buxoro	210	229	109,0
Vobkent	110	123	111,8
G'ijduvon	188	193	102,7
Kogon	132	143	108,3
Qorako'l	92	114	123,9
Qorovulbozor	42	53	126,2
Peshku	141	156	110,6

Romitan	214	230	107,5
Jondor	226	234	103,5
Shofirkon	232	238	102,6


**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (33,3 %), Shofirkon (8,3 %) va Jondor (8,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **654,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **143,0 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,7 %** punktga ko'payib, **18,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi



■ ulushi, % da ■ o'sish sur'ati, % da




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **78,5 %** i yoki 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,6 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **58,5 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **110,6 %**) va Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **43,0 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13,3 m.**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyun oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **50,5 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oyi ko'rsatkichiga nisbatan **2,0 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **103,3 %** ni tashkil etgan holda **1770,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **30,8 %** ni tashkil etdi yoki **1081,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **102,0 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **176,0** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3330,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,0 %** va **95,0 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	3506,5	176,0	5,0	3330,5	95,0
Buxoro sh.	779,9	83,9	10,7	696,0	89,3
Kogon sh.	134,8	3,0	2,2	131,8	97,8
<i>tumanlar:</i>					
Olot	279,0	13,1	4,7	265,9	95,3
Buxoro	297,5	7,5	2,5	290,0	97,5
Vobkent	81,9	6,1	7,5	75,8	92,5
G'ijduvon	306,8	6,7	2,2	300,1	97,8
Kogon	253,3	4,5	1,8	248,8	98,2
Qorako'l	169,9	7,2	4,2	162,7	95,8
Qorovulbozor	192,4	3,2	1,7	189,2	98,3
Peshku	187,1	6,6	3,5	180,5	96,5
Romitan	396,0	13,5	3,4	382,5	96,6
Jondor	240,3	14,6	6,1	225,7	93,9
Shofirkon	187,6	6,1	3,3	181,5	96,7

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2021- yil yanvar-iyun

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **58,4 %** i yoki **2046,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

58,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **335,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,4 %** ni tashkil etdi

16,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **752,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **36,8 %** ni tashkil etdi.

36,8 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **958,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **46,8 %** ni tashkil etdi.

46,8 %




**2021- yilning yanvar-iyun oyida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Buxoro viloyati	3506,5	108,5	2 046,5
Buxoro sh.	779,9	101,3	363,1
Kogon sh.	134,8	100,7	53,7
<i>tumanlar:</i>			
Olot	279,0	104,2	190,1
Buxoro	297,5	100,1	188,5
Vobkent	81,9	105,5	56,9
G‘ijduvon	306,8	100,4	254,2
Kogon	253,3	111,0	211,8
Qorako‘l	169,9	113,1	158,1
Qorovulbozor	192,4	102,0	27,7
Peshku	187,1	109,3	99,6
Romitan	396,0	162,9	283,6
Jondor	240,3	112,0	67,3
Shofirkon	187,6	101,2	91,9

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida
qurilish ishlari**

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	3506,5	2487,1	486,9	532,5
Buxoro sh.	779,9	507,5	168,0	104,4
Kogon sh.	134,8	78,4	8,0	48,4
<i>tumanlar</i>				
Olot	279,0	170,9	24,1	84,0
Buxoro	297,5	245,6	23,8	28,1
Vobkent	81,9	67,6	9,0	5,3
G'ijduvon	306,8	260,5	21,5	24,8
Kogon	253,3	195,0	26,2	32,1
Qorako'l	169,9	136,4	15,4	18,1
Qorovulbozor	192,4	36,5	75,0	80,9
Peshku	187,1	143,7	20,4	23,0
Romitan	396,0	345,4	28,5	22,1
Jondor	240,3	169,7	35,6	35,0
Shofirkon	187,6	129,9	31,4	26,3



2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimidagi qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Buxoro sh. (779,9 mlrd. so'm), Romitan (396,0 mlrd. so'm), G'ijduvon (306,8 mlrd. so'm) va Buxoro (197,5 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: (65) 223-81-99